

**QADIMIY TERMIZ**

*Sattorov Firdavs Ulug'bek o'g'li*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika institute Tarix fakulteti talabasi*

*Tel: +998919058632*

*e-pochta [sattorovfirdavs1601@gmail.com](mailto:sattorovfirdavs1601@gmail.com)*

**Anotatsiya:** Ushbu maqola O'rta Osiyoning qadimiy shaharlari orasida o'zining asran tarixi va yuksak taraqqiy qilgan madaniyati bilan Termiz alohida o'rin egallaydi. Termizning daryo kechuvchi o'rnida va savdo yo'llarining chorrahasida joylashganligi uning qadimgi va o'rta asr O'rta Osiyo davlatlari tarkibidagi ahamiyatini va tarixini belgilab berdi.

**Kalit so'zlar:** Termiz, Baqtriya, Toxariston, "Buyuk ipak yo'li", Salovat, " Erlar shahri ", „Drmat“, „Talima“, „Tarmid“, „Tarmiz“, Tibet, Dxarmamitra, V.Tomashek, " taro maetho ", Eron, Kobod, At – Tabariy, Hofizi Abru, Iskandar Zulqarnayn, V. Tarn, P.Bernar, Oks, Shimoliy Afgoniston, Kukcha, Amudaryo, Oy – Xanum, Xitoy, yuechji, G.A.Pugachenkova.

**Аннотация:** Термез занимает особое место среди древних городов Средней Азии своей древней историей и высокоразвитой культурой. Расположение Термеза на перекрестке дорог и торговых путей определило его значение и историю в составе древних и средневековых среднеазиатских государств.

**Ключевые слова:** Термез, Бактрия, Тохаристан, «Великий шелковый путь», Салават, «Город земель», «Дрмат», «Талима», «Тармид», «Тармиз», Тибет, Дхармамитра, В. Томашек, таро маэто, Иран, Кабад, Ат-Табари, Хафиза Абра, Искандар Зул-Карнайн, В. Тарн, П. Бернар, Окс, Северный Афганистан, Кукча, Амударья, Ай-Ханум, Китай, юэчжи, Г. А. Пугаченкова ,

**Annotation:** Termez has a special place among the ancient cities of Central Asia with its ancient history and highly developed culture. Termez's location at the

crossroads and at the crossroads of trade routes determined its importance and history as part of the ancient and medieval Central Asian states.

**Keywords:** Termez, Bactria, Tokharistan, "Great Silk Road", Salavat, "City of Lands", "Drmat", "Talima", "Tarmid", "Tarmiz", Tibet, Dharmamitra, V. Tomashek, taro maetho, Iran, Kabad, At-Tabari, Hafizi Abru, Iskandar Dhu'l-Qarnayn, V. Tarn, P. Bernard, Oks, Northern Afghanistan, Kukcha, Amudarya, Ay - Hanum, China, yuechji, G.A. Pugachenkova.

O'rta Osiyodagi antik va o'rta asrlarga oid eng ko'hna, siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlarning biri - Termiz shahridir. Shaharning qulay geografik o'rni, ya'ni daryo kechuvchi va karvon yo'llarining chorrahasida barpo etilishi uni tezda O'rta Osiyoda, xususan qadimgi Baqtriya - Toxaristonning eng yirik shaharlaridan biriga aylanishiga asos bo'ldi, qadim - qadim zamonlarda janubni shimol bilan, sharqni g'arb bilan bo'g'lovchi mamlakatlararo karvon yo'llari, jumladan, "Buyuk Ipak yoli" ning bir tarmog'i Termiz orqali o'tgan. Shahar, ayniqsa kushonlar saltanati hukmronligi davrida va o'rta asrlarda o'z taraqqiyotining eng yuqori bosqichlaridan biriga ko'tarildi. Shahar kengaydi, qator ma'muriy va ijtimoiy binolar, ibodatxona va machitlar qurildi. Hunarmandchilik rivojlandi. Bu davrlarda Termiz Baqtriya - Toxaristonning eng taraqqiy etgan madaniyat markazlaridan biriga aylandi. Yozma manbalarning guvohlik berishicha, Termiz shahari 1220 yilda mo'g'ul tatar bosqinchilari tomonidan ishg'ol etilgan.<sup>13</sup> Shahar aholisi bosqinchilariga qattiq qarshilik ko'rsatgan. Bundan g'azablangan Chingizxon Termizni yer bilan yakson qilishga buyruq bergan. Shahar aholisining qirg'in va asirlikdan omon qolgan bir qismi hozir Salovat nomi bilan ma'lum bo'lgan joyga ko'chib otgan. XIV asrda zarb qilingan tangalarda va yozma manbalarda Termiz "Erlar shahri" deb qayd qilingan.<sup>14</sup> Ehtimol bu nomni

<sup>13</sup> Sh.Pidayev. Qadimiy Termiz. Toshkent, Fan, 2001- yil.

<sup>14</sup> Annayev T. Shaydullayev Sh. Surxondaryo tarixidan lavhalar. T: Meros, 1997-yil.

Termiz o'zining mo'g'ul tatar bosqinchilariga ko'rsatgan mardlarcha qarshiligi evaziga olgandir. Yillar, asrlar otishi bilan Termiz harobaga aylana bordi. Uning qadimgi saroylari, machitlari, karvonsaroylari, uylari, ustaxonna va rastalari ornida asta - sekin katta - kichik tepaliklar paydo boldi va shu holda bizgacha yetib keldi.

Darhaqiqat, osha ma'shum voqealarga ham qariyb 780 yildan oshib ketdi. Har tomonda turli sopol idishlarning bo'laklari, bejirim qilib ishlangan shisha buyumlarning siniqlari, g'sht bo'laklari har xil taqinchoqlar, turli davrlarga oid tangalar va shunga o'xshash juda ko'p turli tuman buyumlar sochikib yoribdi. Shaharning ko'pgina joylarida yong'in izlari ko'zga tashlanadi. Shahar xarobasi Termizning o'tmishdagi ravnaqidan va mahobatidan hikoya qiladi. Uning ba'grida asrlar osha saqlanib kelayotgan qadimgi shahar obidalari, turli - tuman hunarmandchilik buyumlari esa avlodlarizmizning yuksak moddiy madaniyatidan so'z ochmoqda.

Ko'xna Termiz xarobalari hozirgi Termiz shahridan 7 chaqirim shimoli-g'arbda, azim azim Amudaryo sohili bo'yida joylashgan bo'lib, uning maydoni 500 gektardan oshiq bo'lgan.<sup>15</sup> Shahar qal'a shahriston va shahar atrofi - rabotdan iborat bo'lib, ularning har biri maxsus mudofaa inshootlari bilan ximoya etilgan. Bundan tashqari rabotning atrofidagi anchagina maydon shahar tarkibiga kirgan. Bu maydon ham maxsus mudofaa devori bilan o'ralgan bo'lgan. Shahar atrofida dala va bog'lar bo'lgan. Afsuski shaharning juda katta maydoni hozir o'zlashtirib yuborilgan. Buning oqibatida bobokalonlarimiz yaratgan qanchadan-qancha noyob tarixiy-madaniy durdonalar yo'q bo'lib ketdi va yo'qolmoqda. Bu juda achinarli xol. Asrlar davomida saqlanib kelgan noyob yodgorliklarning izlari bizning zaminimizda buzib yuborilishi achinarli xolgina emas, katta tarixiy jinoyat, ajdodlarimiz xotirasini oyoq osti qilish demakdir. Shaharning eng qadimiy qismi Amudaryoning shunday sohilida bo'lib, qum va toshdan tarkib topgan tabiiy balandlik ustida qurilgan. Hozir bu joy qal'a deb ataladi. U to'rtburchak shaklida bo'lib, 10 gektardan ortiq maydonni egallaydi. Dastlab ana shu qal'a maydoni shaharning asosini tashkil etgan. Vaqt o'tishi bilan shahar maydoni kengayib

<sup>15</sup> I.T.Botirov. Eski Termiz tarixiy manbalarda. "Fan" nashriyoti, Toshkent, 2010-yil.

borib,oldingi shahar qal'aga aylandi.Bu yerda asosan hokimlarning saroylari, ibodatxonalar va ma'muriy binolar joylashgan.

Shahar va qishloqlarning tepaliklar ustida qurilishi ma'lum ahamiyatga ega bo'lgan.Tepalik mazkur shahar uchun mudofaa inshooti bo'lib xizmat qilgan va uning mudofasini bir necha bor shuning uchun ham qadimgi shahar quruvchilari bunga juda katta e'tibor berganlar.Shahar uchun qulay joyning tanlanishi, uning kelajakdagi rivoji va ravnaqini belgilagan.Termiz shahrining asoschilari shahar uchun eng yaxshi va qulay joyni tanlagan edilar.Shahar mudofaasini yanada mustahkamlashda uning daryo bo'yida joylashganligi ham katta ahamiyat kasb etgan.Yillar va asrlar o'tishi bilan shaharning balandligi madaniy qatlamlar hisobiga oshib bordi. Hozir qal'aning balandligi ayrim joylarda 20 metrdan ziyoddir,qadimda esa bundan ham yuqori bo'lgan.<sup>16</sup> Bir tasavvur qilib ko'ring-a, katta tepalik ustida joylashgan va murakkab mudofaa inshootlari bilan mustahkamlangan shahar qal'asi dushmanga qanchalik g'ulg'ula solgan.Ularning nazarida bu joyni zabt etish umuman mumkin emasdek bo'lib turgan.Darhaqiqat, shunday bo'lgan.Yozma manbalarda qayd qilinishicha,Termiz qal'asini qurshab olgan bosqinchilar bir necha bor uni zabt eta olmay qaytib ketishgan.Hatto hozir ham Termiz qal'asining xarobasi o'zining mahobati bilan zamondoshlarimizni xayratga soladi va uning o'tmishdagi qudratidan dalolat beradi.

Shahrning eng qadimiy nomi qanday bo'lgan,qachondan boshlab u Termiz deb atala boshlagan va Termiz so'zi nimani anglatgan bu to'g'rida aniq bir ma'lumotga ega emasmiz.Buning ustiga shaharning nomi manbalarda turlicha talaffuz qilingan. Xususan,qadimgi arman manbalarida ( IV-V asrlar)u „Drmat" deb atalgan.<sup>17</sup> VII asrlarga oid xitoy manbalarida esa „Tami"nomi bilan ma'lumdir.XIV asrlarga oid xitoy manbalarida u „Talima" deb qayd qilingan.IX - XI asrlarga oid arab fors manbalarida shaharning nomi ko'pincha „Tarmid" „Tarmiz" „Termiz" shaklida bo'lgan. Bu nomlarning hammasi bir shaharga ya'ni Termizga nisbatan ishlatilganligi shak shubhasizdir. XII asrlarda yashagan tarixchi

<sup>16</sup> Sh.Pidayev. Qadimiy Termiz. Toshkent, Fan, 2001- yil.

<sup>17</sup> Tursunov S.N. Surxondaryo tarixi ko'zguisida.Toshkent, 2001 – yil.

Somoniyning xabar qilishicha " Termiz " nomi qadimdan ma'lum bo'lgan.<sup>18</sup> Yaqut XIII asrning boshlarida tuxgan lu'gatida, odamlar shaharning nomini ikki xil talsffuz qilishgan, xususan " Tarmiz " va " Tirmiz " deb yozadi. IX - XIII asrlarda shaharda zarb etilgan tangalarda ham shaharning nomi " Tarmiz " deb qayd qilingan. Demak, shaharning hozirgi nomi IX asrdayoq keng tarqalgan. Albatta, bungacha u shunday nom bilan atalgan. Qadimgi Tibet buddaviylarning manbalarida qiziq bir ma'lumot bor. Jumladan, kitoblardan birida Dxarmamitra degan toxaristonlik buddizmi targibotchisining nomi uchraydi.<sup>19</sup> Uning ( Vaxshu Amudaryo ) daryosi bo'yida joylashgan Tarmita va Termiz so'zlarini o'zaro solishtirsak, ularda oxshashlik borligini ko'ramiz. Shunday ekan Tarmita - Termizning eng qadimgi nomlaridan biri bo'lgan deb hisoblash mumkin. Hozirgi Termiz shahri esa 1928 yildan boshlab Pattakesar qishlo'gi o'rnida paydo bolgan shaharning nomidir.

Shaharning nomi qanday ma'noni bildirgan? Bu haqida manbalarda biron ma'lumot yo'q. IX asrda yashagan mashhur avstriyalik sharqshunos olim V.Tomashek Termiz so'zi qadimgi baqtr so'zidan " taro maetho " dan olingan va u "daryoning narigi sohilidagi manzilgoh" degan ma'noni anglatadi, degan fikrni bildirgan.<sup>20</sup> O'rta asrlar arab manbalarida ham Termizning barpo qilinishi to'g'risida bir qancha ma'lumotlar bor. Bu ma'lumotlarning qanchalik haqiqatga yaqin ekanligini aytish qiyin. Xususan, X asrda yashagan arab muarrixii at-Tabariyning yozishicha, Termizni Eron shohi Kobod qurdirgan. At - Tabariyning bu ma'lumoti Termiz tarixiga ziddir. Chunki Eron shohi Kobod eramizning 489 - 531 yillarida hukmronlik qilgan. Vaholanki, bu vaqtda Termiz bir necha asrli tarixga ega bo'lgan. XV asrda yashab ijod etgan Hofizi Abruning yozishicha, Termizga Iskandar Zulqarnayn asos solgan.

Tarixchi olim V. Tarn Termiz tarixiga oid yoki u bilan qandaydir aloqasi bo'lgan ma'lumotlarning barchasini har tomonlama tahlil qilib, Aleksandr Makedonskiy yurishlarini bitgan yunin rim mualliflarining manbalarida qayd

<sup>18</sup> Sh.Pidayev. Qadimiy Termiz. Toshkent, Fan, 2001- yil.

<sup>19</sup> I.T.Botirov. Eski Termiz tarixiy manbalarda. "Fan" nashriyoti, Toshkent, 2010-yil.

<sup>20</sup> Tursunov S.N. Surxondaryo tarixi ko'zglasida.Toshkent, 2001 – yil.

qilingan va shu shoh tomonidan asos solingan " Oks bo'yidagi Iskandariya" shahri Termiz o'rnida bo'lgan degan xulosaga keladi. Bu juda dadil fikr bo'lgan. [1, 7-9 b.] Chunki V.Tarnda Aleksandr Makedonskiy davriga oid Termiz tarixini yorituvchi arxeologik manbalar yo'q edi. Fransuz olimi P.Bernar esa Oks bo'yidagi Iskandariya shahrini Termiz o'rnida yoki Shimoliy Afqonistondagi Kukcha daryosining Amudaryo bilan qo'shilish joyida joylashgan Oy - Xanum xaroblari o'rnida bo'lishi mumkin degan fikrni olga surdi.

Tarmita - Termiz shahrining keyingi ravnaqi Yunon - Baqtriya davriga to'g'ri keladi. Shaharning qal'a qismida olib borilgan tadqiqotlari natijalari fikrimizning yorqin dalilidir. Bu qatlamlar Yunon-Baqtriya davrida shaharda hayot gurkirab yashnaganida dalolat beradi. Qazishmalar davomida bu yerda Termizning miloddan avvalgi III-II asrlarga oid madaniyatni yorituvchi turli topilmalar qayd qilindi.<sup>21</sup> Ayniqsa, bu yerdan topilgan kulolchilik buyumlari diqqatga sazovordir. Ular o'zlarning bejirim shak bilan hoizr ham odamlarni hayratga soladi. Bu idishlar Termizda miloddan avvalgi III-II asrlarda kulolchilik taraqqiy qilganligidan dalolat beradi. Ularni tayyorlagan kulollar, shubhasiz mohir kasb egalari bo'lganlar. Topilmalar orasida salavkiylar va Yunon-Baqtriya shohlarining nomidan zarb qilingan tangalar alohida o'rin egallaydi. Shohlarning tangalardagi rasmlari juda zo'r mahorat bilan aks ettirilgan. Medalyerlar shohlarning faqatgina tashqi qiyofasini real tasvir qilibgina qolmay, ularning felatvorlarini ochib berishga ham muyassar bo'lganlar. Mazkur topilmalar miloddan avvalgi III-II asrlardayoq Termizni kattagina shahar bo'lganligidan dalolat beradi. Bu shahar taxminan 10 gektar maydonni ishjol etgan. O'sha davr uchun bu anchagina katta maydon bo'lgan. Shahar Shimoliy Baqtriyaning eng yirik iqtisodiy, siyosiy va madaniy markazi hisoblangan. O'sha davrdayoq Termizdan karvon yo'llari o'ta boshlagan. Bu esa shaharning rivojlanishi uchun yana bir omil bo'lib xizmat qilganligini ko'rsatdi.

Miloddan oldingi II asrning o'rtalarida yunon-baqtriya shohligi shimoldan va shimoli-sharqdan kelgan Saklar va yuechji qabilalar xujumi ostida inqirozga

<sup>21</sup> Sh.Pidayev. Qadimiy Termiz. Toshkent, Fan, 2001- yil.

uchraydi. Ko'chmanchilarning bir qismi yanada janubroqqa qarab siljiydi, qolganlari esa Baqtriyada joylashib qoladi. Bu haqida Xitoy yilnomalarida qiziqarli va qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Xususan, bu yilnomalarda yozilishicha Yunon - baqtriya shohligini mag'lubiyatga uchratgandan so'ng ko'chmanchilarning yuechji qabilasi Amudaryoning o'ng qirg'og'iga, ya'ni hozirgi O'zbekiston va Tojikistonning janubiy hududlariga joylashib olgan va 5 qabila bo'lib shu yerda yashay boshlaganlar. Hozircha shu 5 yuechji qabilasining qaysi biri qayerda joylashganligi aniq emas. Ular asta-sekin mahalliy aholi bilan qo'shilib bordi, tilini va ko'pgina urf-odatlarini qabul qildi. Yunon-baqtriya shohlarining tangalariga o'xshatib tangalar zarb qila boshladilar. Oradan 100-yildan so'ng ko'proq vaqt o'tgach, shu 5 yuechji qabilasi Kushon urug'i atrofida birlashib, kushonlar saltanatiga asos solganlar.<sup>22</sup>

G.A. Pugachenkovaning fikricha, kushonlarning ilk poytaxti hozirgi Sho'rchi rayonidagi Dalvarzintepa xarobalari o'rnida bo'lgan. Bu shahar Xitoy yilnomasida Xodzo nomi bilan ma'lum. Vaqt o'tishi bilan kushonlar bugun Baqtriyani, so'ngra, Qobul, Kashmir va shimoliy-g'arbiy Xindistonning katta qismini bosib oldi va buyuk kushonlar saltanatiga asos solganlar. Qisqa vaqt ichida bu saltanat qadimgi dunyodagi 4 ta buyuk davlatlar qatoridan joy oldi. Kushonlar taxminan I-IV asrlarda hukmronlik qildi. Bu davr ko'pgina Sharq xalqlari, xususan O'rta Osiyo xalqlari tarixida muhim ahamiyatga ega.

Shuni ta'kidlash joizki, bu vaqtlar kushonlar davlati tarkibiga kirgan xalqlarning eng gullab-yashnagan davri bo'ldi. Kushonlar saltanati yagona saltanat tarkibida qator xalqlar va elatlarning birlashuvi natijasida bu yerda o'ziga xos bo'lgan madaniyatining rivojlanishiga zamin yaratishi bilan bir qatorda xat bir xalqning madaniy an'analari yanada rivojlanishiga ularning bir-biri bilan yaqinlashuviga ijobiy ta'sir etdi. Xususan, Baqtriyada o'ziga xos Baqtriya madaniy maktabi shakllandi va rivojlandi. Bu maktabning shakllanishida mahalliy madaniy an'analarni asosida ellinizm, buddizm va ko'chmanchi xalqlarning ta'siri katta. Kushonlar davrida Baqtriyada yuzlab shahar va qishloqlarga asos solindi. Eski shaharlar o'z taraqqiyotlarida yangi bosqichga ko'tarildilar. Mana shunday

<sup>22</sup> Sh. Pidayev. Qadimiy Termiz. Toshkent, Fan, 2001-yil.



shaharlardan biri Termiz edi. U Kushonlar hukmronligi davrida yanada yuksaldi. Natijada Shimoliy Baqtriyaning eng katta shaharlaridan biriga va uning poytaxtiga aylandi. Shahar tez sur'atlar bilan kengaya bordi. Kushonlar davrida Termizda savdo-sotiq ham avj olgan. U, asosan, tovar-pul muomalasi orqali olib borilgan. Shaharning „Buyuk ipak yo'li“da joylashuvi uni iqtisodiy va madaniy jihatdan yanada yuksalishiga yana bir zamin bo'lib xizmat qilgan. Ma'lumki, Kushon shohlari xalqaro savdoga alohida e'tobor berganlar. Ular Xitoydan to Parfiyayagacha bo'lgan savdo yo'llarini o'z tasarruflarida ushlab turishga xalaqit qilganlar. Termizning madaniy va ma'naviy va mafkuriy hayotida buddizm alohida o'rin egallagan. So'nggi izlanishlarga qaraganda, Termizga buddani ilk bor miloddan oldingi I asrning oxirlari milodning boshlarida yoq kirib kela boshlagan.<sup>23</sup> Shahar aholisining kattagina qismi buddaviylik dinini qabul qilgan va unga xar tomonlama homiylik qilgan.

Shuningdek, bu yerda alohida stupalar mavjud bo'lgan. Shunday stupalardan biri hozir Zo'rlama dub ataladi. Bu stupa o'zining mahobati bilan odamlarni hayratga soladi. O'z davrida bu yodgorlik oq marmartoshdan tayyorlangan haykalchalar bilan bezatilgan. Haykallar, asosan buddaviylik bilan bog'liq bo'lib, ular zo'r mahorat bilan ishlangan. Albatta, buddaning haykali ular orasida alohida o'rin egallagan. Afsuski, bizgacha bu haykallarning ba'zi birlarigina yetib kelgan, xolos. Shahar aholisi uylarida maxsus ibodat qiladigan xonalar ham bo'lgan. Bu xonalardagi Buddaning terrakotadan yasalgan haykallari turgan. Yillar, asrlar, o'tishi bilan buddaviylik Shimoliy Baqtriya aholisi orasida keng tarqala borib, bu din sohiblari xatto qishloq aholisi orasida ham ko'payib bordi.

Buddaviylik va uning madaniyati Shimoliy Baqtriyaning moddiy madaniyatiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Xususan, so'nggi Kushon davriga oid sopol idishlarning aksariyati buddaviylarning turli ramziy belgilari bilan bezatiladigan bo'ldi. Bu yerda „Budda tovon“ „Budda g'ildiragi“ kabi nishonlarni uchratamiz. Maymunlarning haykallari ham bo'lgan. Ma'lumki maymunlar budda tomonidan e'zozlangan hayvon hisoblanganlar. Vaholanki, shungacha bunday tasvirlar

<sup>23</sup> Annayev T. Shaydullayev Sh. Surxondaryo tarixidan lavhalar. T: Meros, 1997-yil.



Baqtriyada no'malum edi. Bu davrda, ayniqsa buddaning va bodxisatvalarning loydan pishirilgan kichkina haykalchalari keng tarqaldi. Bu haykalchalarda budda turgan yoki taxtada o'tirgan xolda aks ettirilgan bo'lib, katta mahorat bilan ishlangan. Koroplast-qurollar loydan yasalgan sopol haykalchalarda buddaning butun bir holatini, uning ma'naviy yetukligini, barkamolligini ifoda qilishga harakat qilganlar.

**Xulosa:** O'rta Osiyo antik va o'rta asr davrlarida iqtisodiy, siyosiy markazlaridan biri bo'lib kelgan Termiz shahri qadimdan katta ahamiyatga ega bo'lgan. Termiz antik va o'rta asrlarda hukm surgan sulolalar davrida markaz vazifasini bajargan. Savdo yo'lida ya'ni "Buyuk ipak yo'lining" bir tarmog'i o'tganligi bu shaharda savdo – sotiq, iqtisodiy vazifalarni ham bajarib kelgan shaharlardan biri hisoblanadi.

#### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:**

1. Sh. Pidayev. Qadimiy Termiz. Toshkent, Fan, 2001 - yil.
2. I.T. Botirov. Eski Termiz tarixiy manbalarda. "Fan" nashriyoti, Toshkent, 2010-yil.
3. Назиров, Б. С. (2021). МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТ СОҲАСИДА АМАЛГА ОШИРИЛГАН ИСЛОҲОТЛАРНИНГ ТАРИХИЙ ТАҲЛИЛИ. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, (SI-3).
4. Qurbonov, Xolli; Botirov, Ismoil. "Termiz" O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
5. Nazirov, B. S. (2021). The first horse clubs in surkhan oakh. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 1441-1446.
6. Annayev T. Shaydullayev Sh. Surxondaryo tarixidan lavhalar. T: Meros, 1997-yil,

7. Sattorov F, “Buyuk ipak yo’li – muloqot va hamkorlik yo’li”, MEJDUNARODNIY NAUCHNO – OBRAZOVATELNIY SENTROM, 2022 y.
8. Sattorov F, “Anushteginiylar sulolasi davrida Xorazmda davlatchilik jarayonlarining yuksak bosqichlarga ko’tarilishi”, Science and education scientific 2022.
9. Tursunov S.N. Surxondaryo tarixi ko’zgasida. Toshkent, 2001 – yil.
10. Ro‘ziyev A.N., Surxondaryo viloyati T., 1996;
11. Mirzayev J., Termiz tarixi, T., 2001.
12. Tursunov S.N. Surxondaryo etnografik makon. Termiz oqshomi, 2009 – yil.
13. Tursunov S.N. Surxondaryo viloyat tarixini o’rganish T. 1997 yil.